

Nima qiladi? **Ulg'aytiradi, tarbiyalaydi, asraydi**

Gap: **Muqaddas va yagona Vatanimizni sevamiz.**

Ma'nodosh so'z: **Ona-yurt**

5-topshiriq. Rasm asosida bajariladi.

6-topshiriq. O'zbekistondagi viloyatlar nomini yozing.

Andijon, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Xorazm.

IV.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

- Vatan deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?
- Siz kelajakda o'z Vataningiz ravnaqi uchun qanday hissa qo'shmoqchisiz?

O'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

Matnni ifodali o'qish va qayta hikoyalash.

"Vatan – mening tasavvurimda" mavzusida hikoya tuzish.

2-mavzu: "Salom, maktab!" she'ri

Darsning maqsadi:

- a) ta'limiy:** o'quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o'qishni o'rgatish.
- b) tarbiyaviy:** o'quvchilarni ilm olishga qiziqtirish, maktabni qadriga yetish va maktabdagi jihozlarni ehtiyotlash kerakligini tushuntirish.
- c) rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ifodali o'qish malakalarini , ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, "Klaster" metodi, ta'limiy o'yinlar.

Dars jihozi: Rangli rasmlar, tarqatma materiallar, videolavha

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkazish.

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – **"Vatan madhi dillarda"** matnini o'quvchilar ifodali o'qib, mazmunini so'zlab beradilar.

Test topshiriqlari:

1. O'zbekistonning poytaxti qayer?

A. Xorazm

B. Toshkent

D. Farg'ona

E. Samarqand

2. Maqolni davom ettiring. *Ona yurtning* -

A. Ona Vatanning

B. Bebaho yurtning

D. Oltin beshiging

E. Sevimli Vatanning

3. Vatanimiz mustaqilligi nechanchi yilda e'lon qilingan?

A. 1992-yil

B.1990-yil

D.1993-yil

E.1991-yil

4.O'zbekistonda nechta viloyat bor?

A. 10 ta

B. 12 ta

D. 11 ta

E. 13 ta

5. "Vatan" so'ziga ma'nodosh so'zlar to'g'ri berilgan qatorni toping.

A.Diyor, yurt, o'lka

B.El, xalq, yurt

D.O'lka, olomon

E.Xalq,diyor

III.Yangi mavzu bayoni.

"Kim topqir " o'yini.

o'quvchilar topishmoqning javobini topadilar.

"Qiziqarli rebus"o'yini. Darslikda berilgan rebusni yechsangiz bugungi mavzu nima haqida ekanligi kelib chiqadi. O'quvchilar darslikda berilgan rebusning javobini aytadilar.

1- rebusning javobi:

M	A	K	T	A	B
---	---	---	---	---	---

2- rebusning javobi:

Q	O'	N	G'	I	R	O	Q
---	----	---	----	---	---	---	---

Bugungi mavzu maktab haqida ekanligi aytiladi.

"Salom, maktab!" she'rio'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. She'r mazmuni tushuntiriladi. She'r o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.

Lug`at ishi:

Talpinar – oldinga intilmoq.

Hanuz – hali ham, hamon

Zulmat – qorong`ilik

"Topibo'qi!" mashqi.

She'rdan maktabni "uchqun", "zulmat ichra ziyo"ga o`xshatilgan joylarini topibo'qing.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

Maktab haqida videolavha namoyish qilinadi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslikda berilgan savollar asosida savol-javobo'tkaziladi.

1. She'r nima haqida?

2.Siz yozgi ta'tilda nimalar bilan mashg`ul bo'ldingiz?

3.Yangio'quv yili uchun rejalarangiz qanday? O'rtoqlaringiz bilan suhbatlashing.

"Tez aytish" o'yini. Darslikda berilgan tez aytish asosida musobaqao'tkaziladi.

Mashq daftar bilan ishlash.

1-topshiriq. "Salom,maktab" she'ridan ohangdosh so'zlarni topib yozing.

Qadam – olam, quchog`ingda–chog`imda, kuch –uch, jam – birdam, shirin – sirin, kuz –hanuz, bargi – qalbi, marra – karra, kam-ko`st – do`st, uchqun –uchun, ziyosan –dunyosan.


2-topshiriq. Maktab so`ziga ta`rif bering.



3-topshiriq. "Mening maktabim" mavzusida matn tuzing. O`quvchilar mustaqil ravishda matn tuzib yozadilar.

4-topshiriq. 1-ustundagi so`zlarni

2-ustundagi ma`nodosh so`zlar bilan bog`lang.



5-topshiriq. She'ning birinchi bandini ko'chirib yozing. Qofiyadosh so'zlarning tagiga chizing.

Bugun bilimlar kuni,

Turibman quchog'ingda.

Juda sog'indim seni,

Sendan ayro chog'imda.

V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash. Savol-javob o'tkaziladi.

- Bugungi darsimiz sizlarga yoqdimi?
- Siz maktabingizni yaxshi ko'rasizmi? Nima uchun?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish. She'rni yod olish.